

GULSAFSAR(*IRIS PSEUDACORUS*) NING DORIVOR XUSUSIYATLARI<sup>1</sup>*Sanoyeva Mohinur Najmiddin qizi*<sup>2</sup>*Mamatkulova Iroda Ergashevna*<sup>1,2</sup>*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston**Milliy universiteti Jizzax filiali*

**Annotatsiya:** Sariq gulsafsa tarkibida karotinoidlar : β-karotin, violaksantin , lyutein, zeaksantin, ksantofillar mavjud. Ildizida uglevodlar : fruktanlar, 4,7%, saxaroza 0,3%, kumarin, flavonoidlar bor. Ildizpoyasi tarkibida uglevodlar va ularga yaqin birikmalar : irizin, organik kislotalar, triterpinoidlar, bargida fenolkarbon kislotalar ,gulida karotinoidlar, yuksak yog' kislotalar, urug'ida uglevodlar: glyukoza , fruktoza, saxaroza , rafinoza, staxioza , moylar mavjud.

**Kalit so'zlar:** *Iris pseudacorus*, violaksantin, gomeopatiya, epilepsiya ,irizin, safsandoshlar.

**Kirish.** Sariq gulsafsa (*Iris pseudacorus*) Safsandoshlar (*Iridaceae*) oиласига mansub , ko'p yillik qalin ildizpoyali o't o'simlik bo'lib , uzunligi 75-160 sm , poyasi tik o'suvchi , silliq, tuksiz, yuqori qismi shoxlangan . Shoxlangan ildizpoyasining qalinligi 2-3 sm , ildizpoya bo'lakchalarining uzunligi 10 sm bo'lib , ustki tomoni oqish -qo'ng'ir , kesilganda ichki qismi binafsha - pushti rangda. Ildizpoyasining kuchsiz hidi va biroz burushtiruvchi mazasi bor, tarkibida oshlovchi moddalar bo'ladi. Bargi keng qilichsimon yoki chiziqsimon yashil rangli , uzun, o'tkir uchli , parallel tomirlangan, eni 2-3 sm , uzunligi 70-120 sm gacha. Hozirgi vaqtda sariq gulsafsarning tarqalish areali juda keng. U Yevropaning katta qismida tarqalgan.[8,9] Sibirning g'arbiy rayonlari, Rossiyaning Yevropa qismi, Kavkaz, Uzoq Sharq, Saxalin va G'arbiy Sibirda keng tarqalgan. XX asrda u Shimoliy va Janubiy Amerika mintaqasida ham keng tarqalgan. Asosan botqoq yerlar , ariq bo'ylari , daryo va ko'l bo'ylarida o'sadi.[1]

**Asosiy qism.** Sariq gulsafsa – dorivor , bo'yoqbop, asalchil, terilarni oshlashda keng foydalaniladigan o'simlik hisoblanadi. Xalq tabobatida o'pka yallig'lanishi , taloq , bodomcha bez yallig'lanishi, ayollar ginekalogik kasalliklari, jarohat va yiringli yaralarni davolashda, sepkilni yo'qotishda , tish milki yallig'langanda, tish og'rig'ini bosishda ishlatiladi va tonusni oshiruvchi vosita sifatida ham foydalaniladi.Bundan tashqari parfyumeriya sanoatida ham, ishlatiladi. Uning yangi yig'ilgan ildizpoyasi xalq tabobatida gomeopatiyada ishlatiladi.[2] Gulsafsa ayniqsa asab tizimi kasalliklarini davolashda foydali, ildizpoyasining damlamasi bilan yuz yuvilsa, uni tozalaydi, yaltiratadi, sepkilni va ajinlarni ketkazadi, yo'talni to'xtatadi va tish og'rig'ini qoldiradi. Epilepsiyanı davolash mumkinligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan, bosh og'riginı bosishda , ich surgi vositasi sifatida, o'tkir respirator infeksiyalarda , diatezda, soch

o'sishini yaxshilashda ishlataladi.[3] Ayollar jinsiy a'zolarining ayrim yallig'lanish kasalliklarida , bachadondan qon ketishni to'xtatishda , hayz sikli buzilganda ham ishlataladi, Bundan tashqari , og'iz bo'shlig'ining yallig'lanish holatlarida ham ishlatalishi mumkinligi to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.Ildizpoyasining maydalangan kukuni sepma dori tarkibiga kiradi. Sariq gulsafsa bargini bog'lab, kompress sifatida to'g'ri ichak yarasi kasalligida ishlatsa bo'ladi.[4] M.M.Kozirenko va boshqalarning ma'lumotiga ko'ra , sariq gulsafsarning yer ustki qismidan virusga qarshi biologik faol modda olishda xomashyo sifatida foydalaniladi. Ildizpoyasi Bolgariyada qandli diabetni davolashda keng qo'llaniladi, parfyumeriya sanoatida oliv navli parfyumeriya mahsulotlarini olishda , tish pastasi va poroshogi tayyorlashda foydalaniladi. Bundan tashqari ildizpoyasi va guli quritilmagan holatda birmuncha zaharli bo'lishi mumkinligi ham qayd etilgan.[5,6,7]

Xulosa qilib aytganda, sariq gulsafsarning dorivorlik xususiyatlari juda ko'p .O'simlikning o'sishi uchun sharoit yaratib, uni ko'paytirib, farmasevtikada bir qancha kasalliklarga dori tayyorlashda va parfyumeriyada oliv navli parfyumeriya mahsulotlarini tabiiy ravishda ishlab chiqarishda qo'llasak bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.L.X.Yoziyev, N.Z.Arabova. Dorivor o'simliklar-Toshkent , 2017.
2. R.X.Ayupov . Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish –Toshkent 2015.
3. O'.Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M. Yulchiyeva, D. Mustafakulov. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi –Toshkent 2020.
4. Dorivor o'simliklarda ilmiy izlanish asoslari-Andijon 2020.
5. Mamatkulova I.E."Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rGANISH".Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года
6. Ergashevna M. I., Abduvaliyevich M. M. Elwendiya boiss turkumi turlarining antioksidantlik xususiyatlari //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 498-500.
7. Baxodir o'g'li A. B. et al. IN VITRO SHAROTIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI//International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 569-571.
8. BAXODIR O'G'Lli A. B. , Ergashevna M. I., Iskandarovich O. R. A. BIOYOQILG 'ILARNI SANOATDA OLISH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING IMKONIYATLARI //Endless light in science. – 2022. – №. декабрь. – C. 150-154.

9. Baxodir o‘g‘li A. B. et al. ODDIY KANAKUNJUT (RICINUS COMMUNIS L) O ‘SIMLIGINING AHAMIYATI VA AGROTEXNOLOGIYASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 1605-1609.
10. Baxodir o‘g‘li A. B., Iskandarovich O. A., Abduvaliyevich M. M. MARANT (AMARANTHUS) NING-BOTANIK TASNIFI VA DORIVORLIK XUSUSIYATI //SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 336-337.
11. Джамоатова Ф., Анваров Б. Hypericum perforatum 1 osimligining dorivorlik xususiyati va genetik tahlili //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 276-278.